

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU.
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2025
IJTIMOY FANLAR

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

tizimining falsafiy jihatlari.....	106
------------------------------------	-----

SIYOSAT

F.F.Dadaboyev	
Yangi O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda davlat siyosatining roli	110
J.S.Sotvoldiyev	
Sharq va G'arb siyosiy tamaddunida tinchlik va xavfsizlik masalasi talqini	114
T.A.Azizov	
Xorijiy tajribalar asosida favqulodda ekologik vaziyatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish imkoniyatlari.....	119
A.To'xtasinov	
Inson manfaatlarini e'tirof etuvchi konstitutsiya	122
F.R.Ravshanov, X.Z.Muminovich	
Tarixiy geosiyosatda Markaziy Osiyo	128

TARIX

O.V.Mahmudov	
"O'rta asr arabshunoslik tarjima markazlari": tushuncha va muomalaga kiritishning ilmiy asoslari	136
Ф.Т.Баитова	
Политическая нестабильность как фактор возникновения народного восстания в Кокандском ханстве (1873-1876 гг.).....	147
X.X.Mamajonov	
Turkiya Respublikasidagi Temurshunoslik taraqqiyotida xorijdan ko'chib kelgan ziyolilarning o'rni	153
I.R.Tishabayeva	
Sovet davrida O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishi va infratuzilmasining shakllanishi (1970–1990-yillar).....	157
X.L.Xolmirzayev	
"Jome ul-havodis" asari qo'lyozmalari va ularning tavsifi	162
O.B.Nizomiddinov	
Sovet davrida (1920–1930-yillar) Farg'ona vodiysida muzey va teatrlar faoliyati: madaniy o'zgarishlar tahlili	167
Sh.B.Muhiddinova	
Buxoro amirligidagi ijtimoiy hayot masalalari ingliz Aleksandr Byorns talqinida	171
M.A.Umarov	
Afg'oniston va Eronning sovet davlati bilan iqtisodiy sohadagi munosabatlarining qisqacha mazmun va mohiyati	176
S.G'.Nigmatova	
O'zbekistonda nodavlat ta'lim muassasalarining shakllanishi xususiy o'quv markazlar faoliyati misolida	180
J.Axmedov	
Some considerations on the intangible cultural heritage of Karakalpakstan	184
X.P.Jurayev	
Xiva xonligi qishloq xo'jaligida donli ekinlar va ularga doir ayrim mulohazalar	189
H.S.Yusupov	
Xorazm Xalq Sovet Respublikasida "Madrasalar islohoti" dasturining qabul qilinishi va uning oqibatlarini	193
M.Q.Tolibboyev	
Xalq dostonlarida otlarning harbiy ishidagi o'rni (tarixiy-elshunoslik tahlili).....	197
X.X.Mamajonov	
Mustafo Kamol Otaturk kundaligida Amir Temur siymosi	201



UO'K: 061.3:930.85(575.1)

“JOME UL-HAVODIS” ASARI QO'LYOZMALARI VA ULARNING TAVSIFI**РУКОПИСИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «ДЖАМИ АЛ-ХАВАДИС» И ИХ ОПИСАНИЕ****MANUSCRIPTS “JOME’ UL-HAVODIS” AND THEIR DESCRIPTION**

Xolmirzayev Xayrullo Lutfillojon o'g'li 
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Qo'qon tarixchisi Shamsiddin Shavqiy (1805-1889)ning “Jome' ul-havodis” dostoni qo'lyozmalari va ularning tasnifi, tavsifi hamda tahlili berilgan. “Jome' ul-havodis”, ya'ni “Hodisalar ja'mi” nomli asarning uchta qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondining 599, 1762, 1872-raqamlari ostida saqlanmoqda. Qo'lyozmalarni o'rganilishi, matni, mazmuni, tarixiy jarayonlar bilan bog'liq ahamiyati tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются рукописи, классификация, описание и научный анализ произведения «Джоме уль-Хавадис» («Собрание событий»), написанного кокандским историком Шамсиддином Шавки (1805–1889). Три рукописные копии данного труда хранятся в фонде рукописей Института востоковедения Академии наук Республики Узбекистан под номерами 599, 1762 и 1872. В статье анализируются степень изученности рукописей, содержание текста, его связь с историческими процессами, а также значимость произведения как исторического источника.

Abstract

This article explores the manuscripts, classification, description, and scholarly analysis of the work Jome' ul-Havodis (“The Collection of Events”) authored by the Kokand historian Shamsiddin Shavqiy (1805–1889). Three manuscript copies of this work are preserved in the manuscript collection of the Institute of Oriental Studies of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan under inventory numbers 599, 1762, and 1872. The article examines the state of research on these manuscripts, the content of the text, its relevance to historical processes, and the significance of the work as a historical source.

Kalit so'zlar: Shavqiy Namanganoniy, Tarixi shavqiy, Jome' ul-havodis, qo'lyozma, inventar raqam, de'von.

Ключевые слова: Шавкий Наманганский, Тарихи Шавкий, Джамии ал-хавадис, рукопись, инвентарный номер, диван.

Key words: Shavqiy Namanganoni, Tarikhi Shavqiy, Jome' ul-Havodis, manuscript, inventory number, divan.

KIRISH

Mulla Shamsiddin Shavqiy (1805-1889) Qo'qon xonligining so'nggi davrida bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni bevosita guvohi bo'lgan. Shoir bir necha yo'nalishda ijod qilgan bo'lib, biz uchun qimmatli jihati uning tarixiy asarlari hisoblanadi. Uning asarlari qo'lyozma holida bizgacha yetib kelgan bo'lib, ba'zi ijod namunalari boshqa adiblar asarlari tarkibida ham uchraydi, ya'ni shoir asarlaridan boshqa tarixchilar ham foydalangan. Bu esa shoir asarlarining ahamiyatini yanada oshishiga xizmat qiladi. Shulardan biri uning “Jome' ul-havodis” asari hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mulla Shamsiddin Shavqiy asarlariga qiziqishning yuqoriligini uning asarlarini XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida Farg'ona vodiysida tuzilgan majmua va to'plamlarning aksariyat qismida kiritilganligi uning naqadar mashhur bo'lganligidan dalolat beradi. Olimning hayot yo'li va ijodini o'rganish jarayonida bunga yana bir bora amin bo'lish mumkin. Mulla Shamsiddin Shavqiy va uning asarlarini Is'hoqxo'ja Ibrat, V. P. Nalivkin, Ch.A.Stori, Z.V.To'g'on, G'. Karimov, F. Ahmadjonova, A. Xalilbekov, R. Nabiev, Sh. Vohidov, H. Bobobekov, B. Bobojonov, O.Nosirov, N.Abdulahatov, Sh.Qo'ldoshev, S.Jo'raboyeva kabi olimlar o'z asarlari va maqolalarida keltirib o'tishgan. 2021-yilga kelib Nodirjon Abdulahatov va Sherali Qo'ldoshevlar hammualifligida Mulla Shamsiddin Shavqiy deb nomlangan kitob chop etildi. Ushbu kitobda olimning hayot yo'li va ijodi batafsil bayon etildi.

TARIX

NATIJALAR

Mulla Shamsiddin Shavqiyning (1805-1889) g'azallari, masammaslari, masnaviylari va «Jome' ul-havodis» dostonidan iborat devoni XIX asrning 90-yillarida ko'chirilib yaxlit kitob holatiga keltirilgan. Aynan ana shu davrdan boshlab shoir haqidagi ma'lumotlar uchray boshlaydi. Mulla Shamsiddin Shavqiy va uning ba'zi asarlari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni rus sharqshunos olimlaridan biri bo'lgan V. P. Nalivkin beradi. Namangan uezdi mahkamasida xizmat qilgan, keyin bir necha yil Nanay qishlog'ida yashab, o'lka xalqlari tarixi, tili, etnografiyasini o'rganish bilan shug'ullangan sharqshunos V. P. Nalivkin XIX asrning 80-yillari boshida Shavqiyning «Jome' ul-havodis» asari bilan tanishib chiqqan. U shoirni o'z davrining peshqadam kishisi deb baholaydi. Farg'ona tarixini o'rganishda undan yordam olganligini aytadi. Nalivkin Shavqiyning «Jome' ul-havodis» asarini o'rganib, XIX-asr 80-yillarining boshlarida undan o'ziga nusxa ko'chirtirib olgan.

Dostonning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy qo'lyozmalar fondida 1762- raqam ostida saqlanayotgan qo'lyozma nusxasida Nalivkinning asar hamda uning muallifi haqida quyidagi izohi mavjud:

“Jangnoma”. Doston sarti tilida yozilgan. Xudoyorxon zamonasidagi qipchoqlar qo'zg'oloni tasviri. Muallifi - Namangan uezdiga qarashli Kalvak qishloqlik Mulla Shavqiy taxallusli Mulla Shams degan kishi. Bu nusxa saksoninchi yillarning boshlarida mening topshirig'imga ko'ra asl nusxadan ko'chirilgan. V. P. Nalivkin. 1910-yil, dekabr. Toshkent” [2.1]. Olim o'zining “Qo'qon xonligining qisqacha tarixi” nomli asarini yozishda Shavqiy asarlaridan bevosita foydalanganligini o'z asarida yozib o'tadi [15.1]. Ushbu qo'lyozmaning dastlabki betida “Turkiston ommaviy kutubxonasi 12-dekabr 1910” deb yozilgan Turkiston xalq kutubxonasining muhri bor. Shuningdek ikkita inventar raqamli kutubxona muhri ham mavjud bo'lib ularning biri siyohrang, ikkinchisi qizil rangda. Qizil rangli muhrda qo'lyozmaning hozirgi inventar raqami yozilgan. Bundan V. P. Nalivkin ushbu qo'lyozmani 1910-yil 12-dekabrda Turkiston xalq kutubxonasiga topshirgan degan xulosa kelib chiqadi.

Qo'lyomaning asl nusxasi XIX-asrning 80-yillarida qozonlik sharqshunos olim, professor I.F.Gotvald (1813-1897) tomonidan xarid qilingan. Biroq hozirda ushbu qo'lyozmaning taqdiri noma'lum. Asarning yana ikkita nusxasi mavjud bo'lib, biri O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy qo'lyozmalar fondida “Jangnomayi Xudoyorxoniy” (“Xudoyorxon jangnomasi”) nomi bilan 599-raqam ostida saqlanayotgan asar tarkibida, boshqa nusxasi esa markazning H.Sulaymonov nomidagi fondida شوقى ديوان “Devoni Shavqiy” nomi bilan 1872-raqam ostidagi devon tarkibida saqlanadi.

MUHOKAMA

Tarixchi olim Sh.Vohidov o'z tadqiqotida “Jome' ul-havodis” asari Shavqiy devoni tarkibidagi alohida doston sifatida keltirgan [11.195]. Lekin bu dostonning “Jangnomayi Xudoyorxoniy” nomli kitobdagi dostoni bilan bitta asar ekanligi qayd etilmagan. Ushbu tarixiy dostonning adabiyotshunoslik nuqtaqi nazardan badiiy jihatlari professor G'.Karimov, F.Ahmadjonova, A.Xalilbekov tomonidan o'rganilgan [13.44]. Dostondagi ma'lumotlardan R.Nabiev, Sh.Vohidov, H.Bobobekov, B.Bobojonov kabi olimlar ham o'z tadqiqotlarida foydalanishgan. Ushbu tadqiqotchilarning ko'pchiligi “Jome'ul havodis” dostonini “Jangnomai Xudoyorxon” nomi bilan tilga olishgan. Taniqli tarixchi olim Rashid Nabievning (1912-1985) “Qo'qon xonligi tarixidan” asarida ham xuddi nom bilan keltirib o'tgan. Shuningdek, 1963-yilda adabiyotshunos olim G'.Karimov “Shavqiy poeziyasining realistik kuchi” nomli maqolasida ham shu tarzda ma'lumot berilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki Shavqiy o'z dostonini “Jome'ul havodis” (“Hodisalar jami”, “Hodisalar to'plami”) deb atagan. Shuning uchun ham Shavqiy o'z asaridagi boblarni “hodisa” deb atagan. Bunga quyidagi misralar isbot bo'la oladi:

Shavqiyo min buroqi himmatni,
Ushlag'il qo'lg'a qullik g'ayratni.
Qo'y tavakkul bila bu yo'lg'a qadam,
Gar o'zi bo'lsa yor senga ne g'am.
Qilsa bu maqsadimni haq in'om,
Men qo'yay “Jome' ul havodis” nom. [1.171]

Yuqoridagi satrlar dostonning faqatgina 1872-raqamli qo'lyozmadagi nusxasida mavjud bolib 1762 va 599-raqamli qo'lyozmalarda bu qismi mavjud emas. Shuningdek ko'pchilik olimlar o'z asarlarida V.P.Nalivkin ko'chirtirgan nusxani O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti

asosiy qo'lyozmalar fondida 1756-raqam ostida saqlanayotganligini ta'kidlashgan. Lekin biz ushbu qo'lyozma bilan tanishganimizda uning inventar raqami 1756-emas, balki 1762-ekanligiga guvoh bo'ldik.

O'zFA Sharqshunoslik instituti H.Sulaymonov fondidagi 1872-raqamli qo'lyozmada "Jome' ul havodis" dostonining hammasi bo'lib 1632-misrasi bor, dostonning oxiri yo'q bo'lib balki qo'lyozmadan tushib qolgan bo'lishi mumkin. Shu sabadan dostonni qolgan qismi O'zR FA Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi, tarix fanlari nomzodi Hamidulla Lutfullaev tomonidan markazning asosiy fondida 1762-raqam ostida "Jangnomayi Xudoyorxoniy" ("Xudoyorxon jangnomasi") nomi bilan saqlanayotgan V.P.Nalivkin ko'chirtirgan qo'lyozma asosida to'ldirilgan va ilk bor 2016-yida "Jome' ul havodis"ning to'liq nusxasi kitobxonlar e'tiboriga "Qo'qon xonligi nazmiy manbalarda" nomli to'plamida taqdim etilgan. Shuningdek, 1762 hamda 599-raqamlar ostida saqlanayotgan qo'lyozmalar ham o'z navbatida to'liq bo'lmay 1872-raqamli "Devoni Shavqiy"ning 172-betidan boshlanadi. Demak, "Devoni Shavqiy"dagi "Jome' ul havodis" dostoni qo'lyozmaning 144-betidan 228-betigacha o'rin olganini hisobga olsak bu ikki qo'lyozmada dostonning dastlabki 26-beti yo'q. 1762-raqamli qo'lyozmada faqatgina "Jome' ul havodis" dostoni ko'chirilgan bo'lib bu aynan Nalivkin buyurtmasi asosida ko'chirilgan nusxa hisoblanadi.

599-raqamli qo'lyozmada esa uchta asar, uch xil yozuv uslubida ko'chirib yozilgan va "Jome' ul havodis" dostoni uning dastlabki 52-betiga yozilgan. Uning birinchi sahifasida "Zafarnoma. Muallifi Namangan uyezdi Kalvak qishloqlik Mulla Shams taxallusi Shavqiy. Ushbu kitob Toshkent umumiy kutubxonasi sharq sho'basida bo'lgan nusxadan nusxai Nalivkin to'rani hadiyasi bo'lgan. Yozildi 1915-yilda 27-fevraldan 2-chi martda tamom bo'ldi. Yusufxonzoada Muhammad o'g'li chig'atoy tilida yozilgan. Zafarnomai Xudoyorxoniy ma vaqfiya Navoyi [3.1]. Bu yozuvlardan tushunish mumkinki 599-raqamli qo'lyozmada asar "Jome' ul havodis" emas balki "Zafarnoma" deb atalgan hamda 1915-yil 27-fevral 2-mart oralig'ida 1762-raqamli V.P.Nalivkin ko'chirtirgan nusxadan ko'chirib yozilgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinadiki V.P.Nalivkin haqiqatdan ham 1910-yilda o'zi ko'chirtirgan nusxani Toshkent umumiy kutubxonasiga taqdim qilgan. Ushbu nusxaning 1 va 9-sahifasida Samarqand shahridagi O'zbek davlat ilmiy tadqiqot instituti kutubxonasi muhri bosilgan. 1 va 71- sahifalarida esa O'zbek davlat umumiy kutubxonasi qo'lyozmalar bo'limining muhri bor. Ushbu qo'lyozma jami 74- varaqdan iborat bo'lib, oxiridagi 2-varaq'i bo'sh. Yuqorida aytib o'tilganidek qo'lyozmada jami uchta asar jamlangan bo'lib, birinchisi Shavqiyning "Jome' ul havodis" asari 1-26-varaqlarga yozilgan. Ikkinchisi Muhammad Abdulg'afforning "Zafarnomai Xudoyorxoniy" asari 27-49-varaqlarda yozilgan bo'lib, ushbu asar forsiy tilda yozilgan. Uchinchisi nasriy yo'lda yozilgan asar bo'lib qo'lyozmaning 50-71-varaqlaridan joy olgan. Qo'lyozmadagi asrlar bir-biridan bo'sh sahifa orqali ajratilgan.

Mulla Shamsiddin Shavqiy ushbu "Jome' ul havodis" asarida Sheralixonning xon bo'lishi, qipchoqlarning hokimiyatga kelishi, Musulmonquli davrida ijtimoiy va siyosiy hayot, boshqa siyosiy kuchlar hamda Xudoyorxonning qipchoqlar ta'siridan qutulish uchun qilgan harakatlarini mohirona tarzda bayon qiladi. Asar jami besh bobdan iborat bo'lib muallif boblarni asar nomiga hamohang tarzda "hodisa" deb ataydi.

Mulla Shamsiddin Shavqiyning o'z davrida bo'layotgan tarixiy voqea-hodisalar, xonlik tarixiga oid mulohazalarini she'riy uslubda ifodalagani uning asarlarini qiymatini yanada oshirgan. Bunga yana bir misol qilib Qo'qon xoni Mallaxon nomidan o'z ukasi, xonlik taxtida o'tirgan Xudoyorxonga nasihat tarzida bitilgan "Pandnoma" asarini keltirishimiz mumkin. Is'hoqxon Ibrat (1862-1938)ning "Tarixi Farg'ona"[4.58] asarida ushbu asarning bir qismi keltirilgan. Shuningdek G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida 1982-yilda chop etilgan "Asrlar nidosi" majmuasida Shavqiy Namangoniy haqida axborot nomli maqolada, adibning ikki g'azali, bir mustazodi, "Jome' ul havodis"dostonidan parcha bilan birgalikda "Pandnoma" asarining qisqartirilgan nusxasi ham berilgan [8.385]. 2021-yilga kelib Nodirjon Abdulahatov va Sherali Qo'ldoshevlar hammuallifligida "Mulla Shamsiddin Shavqiy"[5.155] deb nomlangan kitobda ham "Pandnoma" asarining nisbatan to'liq varianti mavjud. Ushbu kitobda "Pandnoma" asari jami 61-misrani tashkil etadi. Aytish mumkinki "Pandnoma" asari Shavqiyning boshiga kulfatlar keltirgan. Mazkur asar Xudoyorxonning qo'liga borib tushadi. Shoirning avlodlari va nabirasining aytishicha, Xudoyorxon bu asarni o'qib chiqqach, uni jazolamoqchi bo'lgan va tutib kelishni Turdaliga buyurgan, lekin Turdali bunday qilmaydi, balki aksincha, xonga borib: "Shavqiy o'lib ketgan", deb aytadi. Turdali bu bilan kifoyalanib qolmay, Xudoyorxonning shoirga nisbatan yomon niyatda ekanligini Shavqiyning yaqin odamlari orqali ma'lum qilgan. Namanganga bir necha vaqt kelmay turishi kerakligini tayinlagan. Bundan

TARIX

xabar topgan Shavqiy bir muddat yashirib yurishga majbur bo'lgan [7.8]. Bu ma'lumot yuqoridagi kitobda ham keltirilgan [5.98].

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari institutining H. Sulaymonov fondida "Devoni Shavqiy" nomi bilan 1872-raqam ostida saqlanayotgan asarda adibning bir qancha muhammas, g'azal va mafashshahlari hamda "Jome' ul havodis" va "Riyoziy musulimin" kabi tarixiy dostonlari ham o'rin olgan. Qo'lyozma 121-vaq, ya'ni 242-betdan iborat. Mazkur qo'lyozmaning kirish qismida "Devon Shavqiy" mus'haf Odiljon ibn Nosir Namangan shahri 1966-sana [1.1] deb yozilgan. Nodirjon Abdulahatov va Sherhali Qo'ldoshevlar hammuallifligida chop etilgan "Mulla Shamsiddin Shavqiy" deb nomlangan kitobda mazkur qo'lyozmani "Devoni Shavqiy-2" deb belgilangan. Chunki mualliflar Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Kalvak qishlog'ida istiqomat qiluvchi Shavqiyning evarasi Ismoiljon hoji Lutfiddinov (1968-yilda tug'ilgan) xonadonida saqlanuvchi yana bir devonni "Devoni Shavqiy – 1" deb belgilashgan.

Ushbu devonga doir ma'lumotlar "mus'haf Odiljon ibn Nosir" deb dasxatini qoldirgan Namanganlik adabiyotshunos olim Odiljon Nosirovning "Shavqiy Namangoniyni yangi qo'lyozmasi" [16.] deb nomlagan maqolasida keltirib o'tilgan: Ushbu satrlarning muallifi 1962-yildan boshlab Shavqiy Namangoniyni ijodiy merosini qidirishga kirishadi. Shoir yashagan Namangan viloyati hududidagi Kalvak qishlog'i va unga yaqin bo'lgan Shahand, Yesin va To'raqo'rg'on (hozirda tuman markazi) qishloqlarida bo'lib, shoirning hali ma'lum bo'lmagan katta hajmli qo'lyozmasini hamda turli kishilar qo'lida saqlanayotgan asarlarini topishga muvaffaq bo'ladi.

Uning topilmalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Shavqiy asarlarining 228-betli qo'lyozmasi.
2. Turli she'rlarni o'z ichiga olgan uchta qo'lyozma.

Bulardan biz uchun ahamiyatlisi birinchisi hisoblanadi. Bu qo'lyozmada faqatgina Shavqiyning asarlari to'plangan. Qo'lyozma To'raqo'rg'on qishlog'ida istiqomat qiluvchi Nuriddin Isroilovning shaxsiy kutubxonasidan topiladi. Asarda varaqlar hajmi 21, 5x17 sm. Qo'lyozmaning 170, 174, 200, 220-betlarida qog'oz ishlab chiqqan fabrika muhri bor. "Fabrika N. Latunova № 6,5" [1.170,174,200,220]. Bu belgidan qo'lyozma qachon yaxlit kitob holatiga keltirilganligini aniqlash mumkin. Shuningdek 1 va 228-betlarda asarning inventar raqami yozilgan fond muhri bor. She'rlar sahifaga ikki ustun qilib chiroyli nasta'liq bilan ko'chirilgan. She'riy ustunlar qora qalam bilan ramka ichiga olingan. U yer-bu yerda qizil siyohda sarlavhalar qo'yilgan. Qo'lyozma yaxshi holatda saqlangan. Lekin kitobning boshi, oxiri va o'rtasidagi ayrim varaqlar tushib qolgan. Shuning uchun qo'lyozma qachon va kim tomonidan ko'chirilganini aniqlab mushkul.

Qo'lyozmaning umumiy 121-varag'idan dastlabki 3 va oxirgi 3-varaqlari bo'sh, jami 115-vaqqa matn yozilgan. 142-143-betlarida tushunish qiyin yozuvlar bor, ularning ba'zi qismi ustidan o'chirib chizib tashlangan. 220-221-betlar oralig'ida bitta vaqning yarmi yirtilgan, hamda 221-222-betlar bo'sh. Uning 1-betidan to 124-betigacha bo'lgan qismida turli janrlarda yozilgan 4390 misra she'r bo'lib, g'azallar – 31 ta, 528-misra: masnaviy – 2 ta, 566-misra, muxammaslar – 37 ta, 1486-misra; murabba – 1 ta, 54-misra; musaddaslar – 2 ta, 118-misra va mustazod (to'la emas) – 1 ta, 6-misra. Bulardan 8-ta muxammas tojik tilida yozilgan. Qolganlarining hammasi o'zbekchada yozilgan. Bular orasida 1911-yilda nashr etilgan "Tuhfatul Obidin" [19.152] deb nomlangan to'plamga kiritilgan shoirning she'rlarining deyarli hammasi bor.

Ushbu keltirilgan ma'lumotlardan ma'lum bo'ladiki, To'raqo'rg'onida istiqomat qilgan Nuriddin Isroilovning shaxsiy kutubxonasida saqlangan Shavqiy devoni adabiyotshunos olim Odiljon Nosirov tomonidan aniqlangan va O'zbekiston Fanlar Akademiyasining Sharq qo'lyozmalari institutining Hamid Sulaymonov nomidagi fondiga topshirilib 1872-raqam ostida qayd etilgan. Devonning 124-139-betlarida "Riyoziy musulimin" dostoni joylashgan. 144-betdan 228-betgacha bo'lgan qismida esa "Jome' ul havodis" dostoni o'rin olgan.

Yuqorida aytib o'tilganidek Shavqiyning yana bir devoni Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani Kalvak qishlog'ida istiqomat qiluvchi Shavqiyning evarasi Ismoiljon hoji Lutfiddinov (1968-yilda tug'ilgan) xonadonida saqlanib qolgan. Nodirjon Abdulahatov va Sherhali Qo'ldoshevlar hammuallifligida chop etilgan "Mulla Shamsiddin Shavqiy" deb nomlangan kitobda ushbu qo'lyozmani "Devoni Shavqiy – 1" deb belgilangan.

Ushbu qo'lyozmaning hajmi 26,5x16 sm. 68-vaqdan, ya'ni 136-betdan iborat. Qo'lyozmada 1-ta bodomsimon nusxali, 8-ta katta, 7-kichik yumaloq muhr bosilgan. Qo'lyozma kitob qilib tikilmagan. Sochma holatda saqlanib kelingan.

Katta muhrda 28a, 29a, 30a, 31a, 31b, 34a, 35b, 52a-varaqlarda “Garchi Shavqi ba’masiyat bandast rojy az rahmati Xudost-1299” - (Garchi Shavqiy ma’siyatni quli bo’lsa ham Xudoni rahmatidan umidvordir. 1299/1881/82). degan yozuv tushirilgan.

Bodomsimon nus’hali muhr ichida 37a-varaqda va kichik doirali muhrda 62b varaqda “Shavqiyo mutte” (Itoatkor Shavqiy), degan yozuv tushirilgan.

Kichik muhrda 41b-varaqda ikkita “Mulla Muhammad Yo’ldosh Allohni faqiri bandalarni haqiri” degan yozuv tushirilgan.

“Devoni Shavqiy – 1” nasx xati bilan Qo’qon qog’oziga ko’chirilgan. She’rlar har sahifaga 12-38-qatordan joylashtirilgan. Devonda alifbo tartibiga rioya qilinmagan. Qo’lyozma muvoqalanmagan. Devonga jami 3000-misradan ortiq o’zbek va fors tilidagi she’rlar kiritilgan. Shuningdek, qo’lyozmada Qo’qon xonligi tarixiga doir ayrim qaydlar mavjud. “Devoni Shavqiy – 1”da Qo’qon xonligi Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi bilan bog’liq doston mavjud. Mazkur doston Zaki Validiy To’g’on tomonidan tilga olingan شوقى تاريخ “Tarixi Shavqiy” asarining aynan o’zi bo’lishi ham mumkin. Chunki Zaki Validiyga ko’ra Shavqiy mazkur asarida Chor Rossiyasi bosqinchilariga nafrat bilan qaraganligini bayon etgan[12.86-109]. “Devoni Shavqiy–1”da ushbu dostonning to’liq qismi saqlanmagan. Saqlanib qolgan qismi 400-misradan iborat. Shavqiy avlodlarini aytishlaricha devonning ko’p qismi o’g’irlab ketilgan. Chunki qo’lyozma yuqorida ta’kidlab o’tilganidek, sochma holatda saqlanib kelingan. Ushbu ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki Shamsiddin Shavqiyning yuqoridagi ikki devoni bir-biridan nisbatan farq qiladi. Chunki 1872-raqam ostida saqlanayotgan devonda shoirning “Riyoziy-ul muslimin” hamda “Jome’ ul havodis” dostonlari, shuningdek bir qancha sher va g’azal, muhammaslari o’rin olgan bo’lsa, uning avlodlari qo’lida saqlanayotgan devonida “Tarixi Shavqiy” dostoni, sher, g’azal, muhammaslari o’rin olgan. Yoki har ikki devonning ham bir-birida mavjud bo’lgan qismlari yo’qolgan. Shoirning manbalarda keltirilgan boshqa asarlari keying tadqiqotlarda topilib biz uchun yangidan- yangi ma’lumotlarni taqdim etadi degan umiddamiz.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mulla Shamsiddin Shavqiy o’zining zamondosh tarixchi va shoirlari kabi voqealarni real tasvirlashga harakat qilganligi uning asarlari qiymatini tarixiy manba sifatida yanada oshiradi. Buning isboti sifatida uning asarlaridan ko’plab olim va tarixchilar o’z asarlarida foydalanganliklarini keltirishimiz mumkin. Mazkur asarlar shoirning xalq, adabiyot tarixi va taraqqiyoti uchun qilgan katta xizmatlaridir. Yuqoridagi qo’lyozmalarni o’rganish jarayonida bu fikrlar to’g’ri ekanligini hamda mazkur asarlar Qo’qon xonligining so’ngi davri haqida qimmatli ma’lumotlarni o’z ichiga olganligi bilan biz uchun qimmatli manba hisoblanadi. Shoir asarlarini ilmiy tadqiq etish hamda keng ilmiy amaliyotga taqdim etish orqali yosh tarixchilarimiz hamda talaba yoshlarimiz uchun yurtimiz tarixini o’rganishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. “Devoni Shavqiy”. O’zFA Sharqshunoslik instituti. H.Sulaymonov fondi. № 1872.
2. “Jome’ ul-havodis”. O’zFA Sharqshunoslik instituti. Asosiy qo’lyozma fondi. №1762.
3. “Jangnomai Xudoyorxoniy”. O’zFA Sharqshunoslik instituti. Asosiy qo’lyozma fondi. № 599.
4. “Tarixi Farg’ona”. O’zR FA ShI. asosiy qo’lyozma fondi. № 10117.
5. Абдулахатов Н., Қўлдошев Ш. (2021) Мулла Шамсиддин Шавқий. – Toshkent.
6. Аҳмаджонова Ф. Шавқий Намангоний // Ўзбек тили ва адабиёти. 1970. №4. - Б.58-60
7. Аҳмаджонова Ф. Адабиётимизнинг ўчмас сиймолари. Классик адабиётимиз меросидан. тўплами. № 9. Тошкент: Ўзбекистон, 1983. Б- 8-15
8. Асрлар нидоси. –Т.: Ғафур Ғулум номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1982. –Б.385-392.
9. Бабабеков Х. История Коканда. - Ташкент: Фан. 2011.
10. Бабаджанов Б. Кокандское ханство: власть, политика, религия. - Токио-Ташкент, 2010.
11. Воҳидов Ш. Қўқон хонлигида тарихнавислик (генезиси, функциялари, намоёндалари, асарлари). - Тошкент: Академнашр, 2010.
12. Валидов А. 3. Восточные рукописи в Ферганской области // Записки Восточного Отделения Императорского Русского Археологического Общества. – Петроград, 1915.
13. Каримов Ғ. Шавқий поэзиясининг реалистик кучи // Шарқ юлдузи. 1963. №2. Б.44-46
14. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (феодалное хозяйство Худаяр-хана). - Ташкент: Фан. 1973.
15. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886.
16. Носиров О. Шавқий Намангонийнинг янги қўлёзмаси. “Ўзбекистон маданияти” газетаси. 1965 йил 3 ноябрь сони.
17. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. -Тошкент: Рухафзо, 1998.
18. Лутфиллаев Ҳ., Қўлдошев Ш. Қўқон хонлиги тарихи назмий манбаларда. - Тошкент: Академнашр, 2016.
19. Тухфатул Обидин ва унсун ошиқин. Тошкент., 1911.